

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2-2025
FILOLOGIYA**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.R.Mehmonova	
Dialogik nutq va uning birliklari.....	258
N.Y.Ortiqova	
Tovushga taqlid so'zlarning lingvopoetik xususiyatlari (Anvar Obidjon asarlari misolida).....	262
F.S.Karimova	
Fanlararo yondashuv bilingvizmni o'rganish metodologiyasi	268
N.M.Karimova	
Prose in english and russian literature	273
R.X.Xayitova	
Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan nostalgik leksik birliklarning tahlili.....	278
S.A.Toshmatova	
Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan Chayon" romanining inglizcha tarjimasida metaforaning qo'llanishi	283
D.N.Abduvaxabova	
Kompyuter lingvistikasida emotiv so'zlarni aniqlash va ularning tarjimasida	287
Г.А.Воҳидова	
Этимологияи баъзе калимаҳо дар "Ғиёс-ул-луғот"-и Муҳаммад Ғиёсиддин.....	290
Л.Т.Ғалимуллина, Ш.И.Иброҳимова	
Исследования влияния языковых контактов на тюркские языки: история и классификация	296
Н.К.Аббасова, Ш.А.Тожибоева	
Роль медиа в образовании	303
D.G'.Gafurova	
Zamonaviy hikoyalarda peyzaj tasviri.....	307
Z.Akbarova, Z.M.Sobirova	
O'qish tezligi va matnni tushunish: neyropsixolingvistik nuqtayi nazardan.....	311
Z.A.Akbarova, D.T.Ziyoidinova	
Afaziya turlari tahliliga neyropsixolingvistik yondashuv.....	315



UO'K: 811.512.133+81'373

TOVUSHGA TAQLID SO'ZLARING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI (ANVAR OBIDJON ASARLARI MISOLIDA)**ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА СЛОВ, СООТНОШАЮЩИХ ЗВУКИ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АНВАРА ОБИДЖАНА)****LINGUOPOETIC FEATURES OF SOUND IMITATION WORDS (IN THE EXAMPLE OF THE WORKS OF ANVAR OBIDJAN)****Ortiqova Nargizaxon Yoqubjonovna** 

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya

Lingvopoetika sohasida keyingi yillarda olib borilayotgan tadqiqotlarda badiiy asarlarda qo'llanilgan leksik birliklarning badiiy-estetik vazifalari atroflicha tahlilga tortilgan. Ushbu maqola badiiy matndagi tovushga taqlid so'zlar poetikasiga bag'ishlangan. Tovushga taqlid so'zlar leksik-semantik xususiyatlari, tovush tomonidan fonopoetik xususiyatlariga ko'ra namoyon bo'lishi, bu bilan ifodaning aniq, ravon qilishi, turli ma'no qirralarini ochishi, hissiy ta'sirchanlikni kuchaytirishi kabi jihatlariga e'tibor qaratildi. Tovushga taqlid so'zlar badiiy nutqning ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlaydigan vositalardan biridir. Tadqiqot ob'ekti: A.Obidjonning she'riy asarlari matni. Tadqiqot predmeti: badiiy asar matnidagi leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur, tavsifiy tahlillari. Ushbu tadqiqotning ob'ekti bo'lgan A.Obidjonning she'riy va nasriy asarlari misolida muallifning tovushga taqlid so'zlardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi.

Аннотация

В последние годы в области лингвопоэтики тщательно анализируются художественно-эстетические функции лексических единиц, используемых в художественных произведениях. Данная статья посвящена поэтике слов, имитирующих звук в художественном тексте. Уделялось внимание таким аспектам, как лексико-семантические свойства звукоимитирующих слов, проявление звука по фонопоэтическим свойствам, что позволяет сделать выражение ясным и беглым, раскрыть разные стороны значения, повысить его эмоциональное воздействие. Слова, имитирующие звук, являются одним из инструментов, обеспечивающих выразительность, выразительность и эффективность художественной речи. Объект исследования: текст поэтических произведений А.Обиджона. Предмет исследования: лингвопоэтические особенности лексических единиц в тексте художественного произведения. Метод исследования: системно-структурный, описательный анализ единиц языкового уровня. Умение автора употреблять звукоимитирующие слова изучалось на примере поэтических и прозаических произведений А.Обиджона, которые являются объектом данного исследования.

Abstract

In recent years, the field of linguopoetics has carefully analyzed the artistic and aesthetic functions of lexical units used in fiction. This article is devoted to the poetics of words that imitate sound in a fiction text. Attention was paid to such aspects as the lexical and semantic properties of sound-imitating words, the manifestation of sound by phonopoetic properties, which makes it possible to make an expression clear and fluent, reveal different sides of meaning, and enhance its emotional impact. Words that imitate sound are one of the tools that ensure the expressiveness and effectiveness of artistic speech. Object of the study: the text of A. Abijon's poetic works. Subject of the study: linguopoetic features of lexical units in a fiction text. Research method: systemic-structural, descriptive analysis of language-level units. The author's ability to use sound-imitating words was studied using the example of A. Abijon's poetic and prose works which are the object of this study.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, tovushga taqlid so'zlar, tasviriy so'zlar, onomatopeya, imitatsiya, mimema, badiiy matn, ekspressivlik, badiiy-estetik vazifa

Ключевые слова: лингвопоэтика, звукоподражательные слова, образные слова, звукоподражание, имитация, мимемис, художественный текст, выразительность, художественно-эстетическая задача

Key words: linguopoetics, sound-imitating words, figurative words, onomatopoeia, imitation, mimesis, artistic text, expressiveness, artistic-aesthetic task

KIRISH

Maqolada bugungi o'zbek tilshunosligida lingvopoetika tushunchasi, lingvopoetik tahlil tamoyillari va poetik aktuallashgan til birliklari sifatida tovushga taqlid so'zlar va ularning badiiylikni ta'minlash vazifalari haqida so'z boradi. Badiiy tasvirda she'rning mazmuni, ritmiga mos holda ishlatilgan leksopoetik vositalar kitobxon hissiyotiga kuchli ta'sir qiladi. So'zda konnotativ ma'no leksik vositalar bilan darajalanib borish xususiyatiga ega. Ushbu maqola badiiy matndagi tovushga taqlid so'zlar poetikasiga bag'ishlangan. A.Obidjonning she'riy va nasriy asarlari misolida muallifning tovushga taqlid so'zlardan foydalanish mahorati tadqiq qilindi. Tadqiqot obyekti: A.Obidjonning she'riy va nasriy asarlari matni. Tadqiqot predmeti: Badiiy asar matnidagi leksik birliklarning lingvopoetik xususiyatlari. Tadqiqot metodi: til sathlari birliklarining sistem-struktur tahlillari.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotlar sifatida M.Yo'ldoshevning "Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari", R.Qo'ng'urovning "O'zbek tilida tasviriy so'zlar" A.Nurmonovning "Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati", A.Obidjonning "Saylanma:She'rlar", "Alamazon va uning piyodalari", "Kichkintoylar qunonchi" asarlari va boshqa lingvopoetik tahlil tamoyillari, leksik sath birliklarining lingvopoetik tahliliga doir turli monografiya, maqolalar, tilshunoslik lug'atlaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida badiiy matn, ya'ni badiiy tilga tilshunoslikning antroposentrik yo'nalishlaridan biri bo'lgan lingvopoetika nuqtayi nazaridan yondashuv, badiiy matn tahlili muammolarining keng qamrovli o'rganilishiga yo'l ochmoqda. Buning natijasida, tilshunoslikning har bir sath birliklari o'ziga xos badiiy-estetik vazifa bajarishi haqidagi daliliy va tahliliy qarashlar ilgari surilmoqda. Bu borada o'zbek tilshunosligida olib borilgan tadqiqotlar ko'lami anchayin keng va mo'l bo'lishiga qaramay, til birliklari estetik hodisa sifatida haligacha to'liq tadqiq etilmagan. Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi badiiy asar tilini estetik hodisa sifatida sinchiklab o'rganuvchi til sohasidir, ammo ushbu yo'nalishga oid qilingan tadqiqotlarda ham haligacha tilshunoslikning barcha birliklari mukammal o'rganilmagan.

Tilning estetik vazifasi to'liq namoyon bo'ladigan badiiy asar tili poetik matn, poetik til ijodkorning badiiy va g'oyaviy niyatiga ko'ra ifoda imkoniyatlarini ochadi, badiiy asar muallifi o'z individual nutq konikma va malakasiga ko'ra tilning ushbu birliklaridan turli poetik maqsadlarda foydalanadi. Bunday estetik ifoda imkoniyatlari esa til sathlari: fonetika, leksika, morfologiya, sintaktika va boshqalarning barchasida mavjuddir. Shu ma'noda, tilshunos olim A.Nurmonov o'z kuzatuvlari asosida lingvopoetika, "...badiiy asarlarda qo'llanilgan lisoniy birliklarning (fonetik, morfemik, leksik va boshqalar) badiiy-estetik vazifalarini, tilning konnotativ funksiyasini o'rganadi. Boshqacha aytganda, lingvopoetika tilshunoslikning badiiy nutqni o'rganuvchi bo'limidir" [1.164] deb ta'kidlaydi.

Poetik tilning o'zaro farq qiluvchi bir nechta jihatlari mavjud bo'lib, tilshunos olim G.O.Vinokur bularga shunday ta'rif beradi: "...badiiy til tushunchasi badiiy adabiyot tili tushunchasidan kengroqdir. Chunki bu, birinchidan, nafaqat badiiy adabiyot tili, qolaversa har qanday yozma nutqdir. Ikkinchidan esa, jamiyat madaniy hayotini asosi bo'lgan jamoaviy guruxlarning so'zlashuv tilidir. Badiiy adabiyot allaqachon o'zining tasvirlash va xarakterlar yaratish maqsadlari uchun tilning turli badiiy bo'lmagan vositalaridan keng foydalanmoqda" [2.90].

Darhaqiqat, badiiy asar tilida, u nasriy yoki she'riy matn bo'lishidan qat'iy nazar, jonli xalq tilining mavjud barcha imkoniyatlaridan keng va unumli foydalanish orqali fikrni sodda, ta'sirchan, ixcham, quyma va betakror ifodalarda berish imkoni mavjuddir. Tilning bu imkoniyati esa badiiy asarning badiiy-estetik qimmatini oshirish va g'oyaviy vazifasini to'liq amalga oshirish vositasidir. Buning uchun esa, "Badiiy matnni lisoniy tahlil qilish jarayonida yozuvchining tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emosional-ekspressiv ifoda semalari qabariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi"[3.32].

Ushbu tadqiqot ishning ob'ekti sifatida Anvar Obidjonning turli janrlarga oid badiiy asarlari matnlari olindi hamda tarkibidagi ekspressivlik xususiyati yaqqol namoyon bo'lgan mikromatnlar tahlili natijasida o'zbek tilidagi tovushga taqlid so'zlar lingvopoetik tadqiq etildi. Bunda tovushga taqlid so'zlar leksik-semantik xususiyatlari, tovush tomoniga ko'ra esa fonopoetik xususiyatlariga

ko'ra namoyon bo'lishi, bu bilan ifodaning aniq, ravon qilishi, turli ma'no qirralarini ochishi, hissiy ta'sirchanlikni kuchaytirishi kabi jihatlariga e'tibor qaratildi.

Tovushlar tilning eng kichik birliklari sifatida so'z va morfemalardan tashqarida ma'no anglatmasa ham, badiiy matnlarda har qanday voqelik, avvalo, nutq tovushlari orqali tasvirlanadi. Badiiy ifodalilikni kuchaytiruvchi asosiy vositalar qatorida tovushlar takroriga asoslangan "alliteratsiya, assonans, anafora, epifora va onomatopeyalar" [4.113] sanaladi. Fonopoetikada ekspressivlikni ifodalovchi taqlidiy (tasviriy) so'zlar sifatida namoyon bo'ladigan onomatopeya turli tabiat hodisalari va jonivorlarning tovushlarini insonlarning ovozi bilan ifodalanishi natijasidir. "Onomatopeya - poetik nutqda, she'r yoki prozadagi tovush hodisalariga badiiy taqlid qilish usuli." [5.215] Bunga ko'ra, tasviriy so'zlar matndagi ishtiroki bilan ma'lum bir ekspressiv vazifani bajargandagina ularni poetik yoki onomatopeik vosita sifatida olish mumkin bo'ladi. Tovushga taqlid so'zlar o'zining tovush qobig'i, leksik-semantik ma'no qirralari hamda grammatik xususiyatlaridan tashqari yana ko'plab boshqa poetik bo'yoqlari tufayli badiiy matnlar tarkibiga kiritilgani bois, ularga ekspressivlikni ifodalovchi vositalar sifatida e'tibor qaratilishi zarur bo'ladi.

Tilshunoslikka oid adabiyotlar, lingvistik lug'atlar va boshqa manbalarga tovushga taqlid so'zlar uchun *tovush simvolizmi, onomatopeya, tasviriy so'zlar, tovushga taqlid so'zlar, mimemalar, imitativ so'zlar* kabi turlicha atamalar qo'llangan. Jumladan, O.S.Axmanova: "*Tovushga taqlid so'zlar - onomatopeya* (ingl. "*tovush simvolizmi*")": 1. tabiat tovushlarini va ba'zi jarayonlar (qaltirash, kulish, xushtak va boshqalar) bilan birga keladigan tovushlarni, shuningdek, hayvonlarning ovozlari shartli ravishda takrorlash: "miyov", "vov-vov", "qu-qu". 2. tovush qobig'i u yoki bu tarzda nomlariga o'xshab ketadigan (predmet va hodisalarni anglatuvchi) so'zlarni tuzish: xoxolamoq, miyovlamoq [6.137]" deya ta'rif beradi.

"Qrimtatar-ruscha lug'at"da bu birlik *mimema* atamasi bilan ta'riflangan: "...yunoncha "ko'chirish" - grammatikadagi tovushga taqlid so'zlar, tovush tasvirli so'z – fonemik ko'rinishi va denotatsiya o'rtasida ikonik aloqaga ega bo'lgan so'z, ovozli tasviriy so'z, o'z kelib chiqishiga ko'ra yaratilish davrida, asosan, tovush tasvir xususiyatiga ega bo'lgan so'z [7]". *Imitatsiya* atamasi esa, asosan, jahon tilshunosligida keng qo'llaniladi, u, "...lotincha "taqlid qilish". 1. Kimgadir yoki nimagadir taqlid qilish, takrorlash, ko'chirish. 2. Polifonik musiqada avval boshqa ovozda yangragan kuyning yana bir ovozda aniq yoki o'zgartirilgan takrorlanishi" tarzida izohlanadi. [8] Shuni ta'kidlash zarurki, "mimema" va "imitatsiya" atamalari lingvistik adabiyotlarda deyarli uchramaydi, biroq tovushga taqlid so'zlar haqida gap ketganda bu atamalarni xorijiy tillar (masalan: rus, ingliz tillari) dagi ilmiy va ilmiy-ommabop uslubdagi matnlarda uchratish mumkin.

O'zbek tilidagi tasviriy so'zlarning leksik-semantik hamda grammatik xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib borgan, ularning fonetik qobig'i, ifodalagan uslubiy bo'yoqlariga ham e'tibor qaratgan tilshunos olim R.Qo'ng'urov [9] tabiatdagi narsa va jonzotlarning tovushlariga insonning taqlid qilishi natijasida tilda nutq tovushlaridan tashkil topgan so'zlar shakllanishi, ularning tilda silliqlashib, tovush va tuzilish jihatidan shakl va ma'noga ega bo'lishi, natijada, gapning biror bo'lagi vazifasini bajargan holda tushuncha anglatishi mumkinligini ta'kidlab, ularning beshta xususiyatini ko'rsatgan. Uning tasnifiga ko'ra, "...taqlid so'zlar: a) o'zlarining leksik ma'nolariga ega; b) kishida umumiy taassurot hosil qilish darajasiga ko'tarila oladi. Bir tilda gapiruvchi hamma kollektiv asosan ularni bir xilda tushunadi; v) o'zlariga xos qurilishga, formaga ega; g) sodda holda asosan yordamchi fe'llar bilan birga keladi; d) gapda ma'lum bo'lak vazifasini bajarib, boshqa gap bo'laklari bilan munosabatga kirisha oladi. Mana bu xususiyatga ega bo'lgan taqlidni so'z deb hisoblash mumkin". [9.22]

Tovushga taqlid so'zlar asosan nasriy asarlar matnida keng qo'llanadi. She'riy matnlarda esa bolalar adabiyotidan tashqari kam ishlatiladi. Ularga xalq og'zaki ijodi namunalarida ko'p murojaat qilinganligini ko'rish mumkin. Tilshunos olim R.Qo'ng'urov ham tovushga taqlid so'zlarning "ketma-ket, tizilib kelishi hamda yaxlitlik va uyg'unlikni tashkil etishi dostonlar tabiatiga to'la mos kelishi" [9.39]ni ta'kidlagan. A.Obidjonning xalq qo'shiqlari ohangida yozilgan she'rlarida ham tovushdoshlik, ohangdoshlik va tovushga taqlid vositasida so'zlarning xuddi bir-birini tortib, bir-biriga uyg'unlashayotgandek tizilishini kuzatish mumkin. Masalan:

"Do'ldan shuv-shuv oqar donlar,
Tegirmonning toshiga.
Bir-birovin turtib-tortar,

TILSHUNOSLIK

Shoshar ofat qoshiga.” [10.53]

She'r matnida ohangdosh bo'lib kelayotgan “t”, “sh” tovushlarining takrori birinchi misradagi “shov-shuv” taqlid so'zi tarkibidagi “sh” tovushiga uyg'unlashib, oxirgi misradagi “shoshib” so'ziga birlashmoqda. Natijada she'rning bu bandida ifodalanayotgan donlarning tegirmon toshi ostiga shoshib tushishi tasviri go'yoki ovozashtirilgandek tuyuladi. Shuning o'zigina xali she'rning ko'chma, obrazli ma'nosini anglab ulgurmagan o'quvchida o'zgacha estetik zavq va tasavvur hosil qila oladi.

Tovush va holatga taqlid so'zlarga “-illa” (fe'l yasovchi) qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan harakat va holatni badiiy ifodalash san'ati asosan xalq dostonlari, nasriy asarlarda ko'proq kuzatiladigan holat. Muallif bu kabi tovushga taqlid so'zlardan foydalanib go'zal, betakror obrazli she'rlar yaratgan. Masalan:

“Itbaliqni quvar laqqa qanotini hilpillatib,

O'lja poylar qisqichbaqa mo'ylabini selkillatib.” [10.176]

“Suv osti dunyosi” she'ridan olingan ushbu parchada laqqa baliqning qanotlari, qisqichbaqaning mo'ylovi qay holatda qimirlayotganini holatga taqlid onomatopoeik vosita orqali tasvirlab, ta'bir joiz bo'lsa, mahoratli “rassomdek chizib”. “kinochidek suratga ola olgan”. Muallifning tasviriy so'zlarning bunday imkoniyatidan unumli foydalanish mahorati she'rning keyingi misralaridagi “Arrabaliq... tishlarini g'irchillatib”, “...Cho'rtan qochdi dumin qiltillatib”, “Toshbaqa... sekin, kosasini yiltillatib”, “Baqa... ko'zlarini mo'ltillatib”, “Yosh-u qari yurar og'zin cho'lpillatib” kabi obrazli tasvirlari orqali yanada yaqqol namoyon bo'lgan.

Bundan tashqari, muallif o'z ijodida tovushga taqlid so'zlardan bolalar uchun yozilgan she'rlarning ohangdor qofiyalash, satrlardagi obrazlarni “ovozlantirish” va engil kulgi hosil qilish uchun unumli foydalangan. Masalan, “Musiqi darsi” she'rida:

“Eshitildi qo'ng'iroq jiring-jiring,”

Tugab qoldi tanaffus, yuring-yuring.

Uloq chaldi rubobni tiring-tiring.”

Koshki, o'qib kulsangiz hiring-hiring.” [10.179]

A.Obidjon “Bolakay va To'rtko'z” she'rida bir kuchukning turli vaziyat va holatlardagi besh xil ovozigacha taqlid so'zlarni o'zaro qofiyadosh qilib qo'llab kuchuk haqidagi badiiy tasvirni jonli tarzda ko'rsata olgan:

“O'ylamaski, tinglashga

Zormi zormasmi birov;

Ko'cha kezib daydi it

Qo'shiq kuylar:

-Vov-vov-vov.” [10.165]

Shu tarzda she'rning keyingi bandlarida kuchukning turli ovozlari taqlid so'zlar qo'llangan. Muallif kuchukning unga qand bergan bolaning oldiga etib kelgunicha bo'lgan sarguzashtlarini o'zgacha badiiy mahorat bilan tasvirlaydi. Qolaversa, qo'llangan har bir tovushga taqlid so'z qofiyadosh bo'lib ham kelgani she'rning yanada ohangdorligini ta'minlagan: “-Tentak... -Vak-vak-vak”, “-Jag'ni yop... -Vopira-vop”, “...qaynoq suv...-Uv-v-v! Uv-uv!”, “...jang... -Ang-ang”, kabi

Muallifning turli buyum va hayvonlar tilidan yozgan turkum she'rlarida tovushga taqlid so'zlar va ularning takroriy qo'llanishi asosiy poetik unsur vazifasini bajargan. Masalan, “Shippak qo'shig'i” she'rida:

“Yuraman uy ichida,

Ship-ship-ship.

Gilam yumshog'-ey juda,

Ship-ship-ship.

Turtinmayman men toshga,

Ship-ship-ship.

Lekin zorman quyoshga,

Ship-ship-ship.”

Shu tarzda muallif barcha qo'shiqlarda buyum va hayvonlarni “o'z ovozi” - tovushiga taqlid so'zlar orqali “kuylatadi”. Masalan: “Ishlayapman tinmasdan, Qitir-qitir”(“Ruchka qo'shig'i”); “Cho'chitaman lanj, qo'rqoqni, Paq-puq”(“Miltiqcha qo'shig'i”); “Jim ketyapman o'ng

qo'ldan, Dut-dudut ("Avtobus qo'shig'i"); "Teshib tushdim tomingizdan, Chakka-chuk, chakka-chuk" ("Chakka qo'shig'i"); "Egnimda ko'k ko'yilagim, Vaq-vaqa-vaq." ("Baqa qo'shig'i"); "O'zim eyman obqochib, Chirig-chiq" ("Chumchuq qo'shig'i"); "Tomga chiqib baqiraman, Vaxax-xa" ("Karnay qo'shig'i"); "Sakrog'ichmiz, chaqqonmiz, To'p-to'p-to'p" ("Koptok qo'shig'i"); "Yum-yumaloq qosqonim, Bak-baka-bum." ("Chirmanda qo'shig'i"); "Qamish ruchkam bor edi, Ixa-ixa. Ukam uni ham edi, Ixa-ixa" ("Xo'tik qo'shig'i") kabi misollarda.

A.Obidjon asosan bir yoki ikki bo'g'inli bo'lgan taqlidiy so'zlarni takroriy va juft holatda qo'llab bolalar uchun yozilgan she'rlarida ekspressivlikni oshirib va betakror va aniq obrazlar yaratishda unumli foydalana olgan. Masalan, "Xusanchaning" po'pisalari she'rida:

"Shoxga chiqib o'rik qoqsang,
Men tagiga turvolsam-chi?
Tushguningcha mevalarni
Xappa-xappa urvolsam-chi?" [10.164]

Shoshib, og'zini katta ochib-yopib eyish holatini birgina tovushga taqlid so'z orqali "ko'rsatib" bergan.

Muallif nafaqat bolalar uchun yozgan she'rlarida, balki jiddiy, falsafiy she'rlarida ham tovushga taqlid so'zlar yordamida betakror obrazlar yarata olgan. Masalan "Uch chanoq" – uch qatorli falsafiy she'rida:

"Keldi nenidir izlab,
Yurdi bejo "vis-vis"lab,
Nenidir topdi, ketdi." [10.75]
"Vis-vis"lab (ilondek tovush chiqarib) taqlidiy so'zi orqali badiiy obraz yaratilgan.

"Shamol guvlayveradi,
Qushlar sayrayveradi,
Daryolar shovullayveradi.
Baliq esa

Hech qachon gapirmaydi.
Men baliq emasman." [10.144]

Bu misolda baliqning ovoz chiqarmasligini insonning ba'zi sabablarga ko'ra sukut saqlashiga o'xshatilib, shamol va daryoning shovqiniga nisbatan ajoyib kontrast hosil qilingan.

"Ta'sirlanish" she'rida:
"Yetim xo'tik haqida
She'r aytsam qarang,
Eshagimiz baqirib
Yig'ladi "xang-xang." [10.170]

Eshakning "yig'lashi" – xangrash insonning baqirib yig'lashiga o'xshatilib jonli tasvir hosil qilingan. Qolaversa, bu tasvir zamirida o'ta kuchli majoziy ma'no ham bor. Muallif aqlsizlik timsoli bo'lgan eshak ham etimlarga achinib, ta'sirlanib yig'lashi mumkinligini ba'zi insonlardagi befarqlikka qarama-qarshi qo'ygan.

Muallif "Bahor" she'rida qo'llangan tovush va holatga taqlid so'zlarning barchasi she'r matnida o'zgacha obrazli tasvirlarni ifodalaydi:

"Shimol yoqqa qochdi qish, bahoroydan zirillab,
Iliq shamol janubdan kirib keldi gurillab.
... Chaman bo'lib tog'larda ochilganmish lolalar,
Soz bo'lardi, Bulbuljon, borib kelsang g'irillab." [10.174]

Tovushga taqlid so'zlarning she'riy nutqning ohangdorligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi poetik vosita sifatida ko'rib chiqdik. Nasriy asarlarda ham tovushga taqlid so'zlar xushohanglik va ekspressivlikdan tashqari o'ziga xos tasviriy vosita sifatida qo'llanganligini Anvar Obidjonning bolalar uchun yozilgan bir nechta nasriy asarlari matnlari misolida tahlil qilish mumkin. Masalan:

"...sharshara ostidan biqillab buloq chiqib turishi faqat shu erda yashaydigan kishilargagina ma'lum edi." [11.4] Matndagi "biqillab" tovushga taqlid so'zi olib qo'yilgan holatda o'qilganda buloq suvining er ostidan qay holatda chiqib turishi, qanday tovush eshinishi kabi ma'lumotlar o'z-o'zidan g'oyib bo'ladi. Tovushga taqlid so'zlarning badiiy matndagi poetik vazifasi shu tariqa izohlanadi.

TILSHUNOSLIK

“Qani, darvoza tomonga qarab yana bir-ikki yumalashaylik-chi. Buning uchun oldin meni teping, so'ng bironta polvonroq odam sizning ketingizga *gupillatsin*. Qarabsizki, ikkalovimiz ham ketma-ket uchib boryapmiz-da!” [11.138] Anvar Obidjonning “Futbol to'pining sarguzashtlari” nomli hikoyasidan olingan ushbu parchadagi “gupillab” tovushga taqlid so'zidan “gupillatmoq” fe'li hosil qilinganki, bu ifoda matnda “tepmoq” so'ziga ma'nodosh so'z sifatida qo'llanib ifodaning betakror hamda komik ma'noga ega bo'lishini ta'minlagan.

“Qayoqqa yurishlarini bilmay turganlarida, xo'roz qanotlarini *“patpat”latganicha* devor ustidan oshib o'tib, ularning yoniga qo'ndi.”[12.268] “Quyoshning qanotli o'gli” hikoyasidagi xo'rozning devor ustidan oshib o'tishi tasviri birgina *“patpat”latganicha* tovushga taqlid so'zi vositasida aniq, ta'sirchan va “ovozi” tarzda ifodalashga erishilganligini ko'rish mumkin.

XULOSA

1. Badiiy asar tilida muallif tomonidan tabiat va jamiyatdagi turli hodisalar tasviri va obrazini ta'sirchan holatda berishga intilish, ya'ni mavjud fizik tovushlarni nutqda ifodalash jarayonida ularga taqlid qilish tabiiy ravishda subyektiv yondashuvni keltirib chiqaradi.

2. Mualliflar tovushga taqlid so'zlarning o'ziga xos ohangdagi talaffuzini yozuvda berish orqali o'quvchi va tinglovchining e'tiborini muayyan obraz yoki tasvirga qaratadi.

3. Tovushga taqlid so'zlari vositasida badiiy matnda ma'no tovlanishlari yuzaga keladi, bu esa ifodaning shirali, ya'ni hissiy-ta'siriy jihatdan bo'yoqdor chiqishiga xizmat qiladi.

4. Tovushga taqlid so'zlar badiiy nutqda qulaylikni ta'minlaydi va ifodalilikni oshirish vazifasini bajaradi, bu esa ularni poetik vosita sifatida o'rganish va baholash imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nurmonov A. Tilshunoslikning adabiyot bilan munosabati/ Tanlangan asarlar. 3 jildli.- Toshkent: Akadernashr, 2012. -3-jild.- B.164. (Nurmonov A. Relationship of linguistics with literature/ Selected works. 3 volumes.-Tashkent: Akadernashr, 2012. -Volume 3.- P.164.)
2. Винокур Г.О. Филологические исследования: лингвистика и поэтика. М.: Наука, 1970.-С.90. (Vinokur G.O. Philological research: linguistics and poetics. M.: Nauka, 1970.-P.90.)
3. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. –Toshkent: Fan, 2006. B.35.(Yuldashev M. Basics of literary text and its linguopoetic analysis. -Tashkent: Fan, 2006. P.35.)
4. Гальперин И.Р. Стилистика английского языка, М, 1981.(Galperin I.R. Stylistics of the English language, M, 1981.)
5. Hotamov N., Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1979.-B.215. (Hotamov N., Sarimsakov B. Russian-Uzbek explanatory dictionary of literary terms. – Tashkent: Teacher, 1979.-P.215.)
6. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.,1969. (Akhmanova O.S. Dictionary of linguistic terms. Moscow, 1969.)
7. Крымскотатарско-русский словарь. <https://classes.wiki.all-crtatar.dict/> (Crimean Tatar-Russian dictionary.)
8. Имитация. <https://ru.m.wikipedia.org/wiki> (Imitation)
9. Қўнгулов Р.Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. Тошкент: Фан, 1966. (Kungurov R. Descriptive words in the Uzbek language. Tashkent :Fan, 1966.)
10. Obidjon A. Saylanma: she'rlar.- Toshkent: Akadernashr, 2017.- B.248.(Obidjon A. Selected Works: Poems.- Tashkent: Academy, 2017.- B.248.)
11. Obidjon A. Alamazon va uning piyodalari.-Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. (Obidjon A. Alamazon and his pedestrians.-Tashkent: Yangi asr avlod, 2014.)
12. Obidjon A. Kichkintoylar quvonchi. –Toshkent: O'zbekiston, 2019. (Obidjon A. The Joy of Toddlers. – Tashkent: Uzbekistan, 2019.)